

BADIIY TARJIMADA REALIYA VA LAKUNA TARJIMA MUAMMOLARI

Yodgorov Shamsiddin Abduraimovich

Termiz davlat universiteti, PhD

yadgarovshamsiddin@gmail.com

+998975518756

Ibragimova Ibodat Ilyas qizi

Termiz davlat universiteti, talaba

E-mail: ibi98086@gmail.com

+998941804112

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20179655>

***Annotatsiya.** Mazkur tezisda badiiy tarjimada realiya va lakuna tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvomadaniy muammolar hamda tarjimon oldida turgan asosiy vazifalar tahlil qilinadi. Realিয়া va lakunalar milliy madaniyat, urf-odat, tarixiy muhit va xalq mentalitetini ifodalovchi birliklar sifatida badiiy matnning mazmuni hamda estetik ta'sirchanligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tezisdan ushbu birliklarni tarjima qilishning transliteratsiya, izohlash, muqobil variant tanlash va adaptatsiya kabi usullari ko'rib chiqilib, ularning afzallik hamda kamchiliklari yoritiladi. Shuningdek, badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash va asiyat mazmunini to'liq yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy tarjima, realiya, lakuna, lingvomadaniyat, milliy kolorit, tarjima muammolari, transliteratsiya, adaptatsiya, ekvivalentlik, madaniy birliklar.*

Badiiy tarjima jarayonida o'ziga xos murakkabligi bilan ajralib turuvchi **realiya va lakunalar** tahlili alohida ilmiy e'tiborni talab etadi. Zero, ushbu til birliklari badiiy asarning milliy o'ziga xosligini hamda undagi madaniy koloritni bevosita namoyon qiluvchi asosiy vositalardir.

Badiiy matnlardagi umumiy lingvistik yoki uslubiy muammolar atroflicha o'rganilib, ma'lum darajada tizimli yechim topishi mumkin bo'lsa, realiya va lakunalarga xos xususiyatlar tarjimondan maxsus usullarni qo'llashni taqozo etadi. Bu kabi muammolar, ayniqsa, **Jaloliddin Rumi**ning "*Masnaviyi ma'naviy*" asari kabi mumtoz tasavvufiy meros namunalari boshqa tillarga o'girishda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki tasavvufiy kontekstda har bir so'zning milliy-etnik, hamda chuqur falsafiy-diniy qatlamlar mavjud bo'lib, ularni saqlab qolish tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi.

Tarjimashunoslikda realiya tushunchasiga berilgan klassik ta'rif 1986-yilda soha mutaxassislari **Sider Vlavov** va **Sider Florin** tomonidan shakllantirilgan. Olimlarning e'tiroficha:

"Realiyalar — bu muayyan bir xalqning turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga xos bo'lgan, boshqa xalqlarda uchramaydigan buyumlar, tushunchalar va hodisalarni ifodalovchi lisoniy birliklardir. Ular o'zida milliy va tarixiy koloritni tashiydi; qoida tariqasida, ularning boshqa tillarda so'zma-so'z muqobillari (ekvivalentlari) mavjud emas va shuning uchun ham ular "tarjima qilib bo'lmas" unsurlar sirasiga kiritiladi".

Mualliflar realiyalarni boshqa lisoniy birliklardan farqlovchi uchta asosiy xususiyatni qayd etadilar:

Milliy va hududiy mansublik: Realিয়া faqat muayyan bir xalq yoki hududga tegishli bo'ladi.

Tarixiylik: Realiya ma'lum bir davrga oid bo'lib, o'sha zamon ruhini (koloritini) aks ettiradi.

Lisoniy muqobilning mavjud emasligi: Realiya ifodalaydigan tushunchani boshqa tilda aynan ko'rsatib beruvchi ekvivalentning yo'qligi.

Shuningdek, tadqiqotchilar realiyalarni **termin** va **ekzotizmlardan** farqlash zaruriyatini uqtiradilar. Terminlar xalqaro xarakterga ega bo'lib, estetik vazifadan yiroq bo'lsa, realiyalar xalqona tabiatga va kuchli ekspressiv xususiyatga ega. Ekzotizm bilan farqlashda esa shuni tushunish lozimki, realiya — tushunchaning o'zi, uni tarjima qilmasdan, o'z holicha tarjima matniga olib kirish (ya'ni tarjima tilida "begona" bo'lib turishi) esa — **ekzotizm** hisoblanadi. Badiiy tarjimada realiyalar bilan bir qatorda, **lakunalar** (lisoniy yetishmovchiliklar) muammosi ham markaziy o'rin tutadi. Mashhur tilshunos olim **Roman Yakobson** hali 1959-yildayoq tillararo nomuvofiqliklar haqida to'xtalib, shunday qayd etgan edi:

“Qayerdagi yetishmovchilik mavjud bo'lsa, terminologiya o'zlashma so'zlar yoki kalkalar, neologizmlar yoki semantik ko'chishlar, va nihoyat, atroflicha tushuntirish (tavsifiy iboralar) orqali aniqlashtirilishi va boyitilishi mumkin”.

Olimning mazkur fikridan ma'lum bo'ladiki, u "yetishmovchilik" deganda bevosita leksik bo'shliqlarni, ya'ni lakunalarni nazarda tutgan. Yakobson lakunalarning yuzaga kelishini tillarning grammatik qurilishi va nimalarni ifodalashi shartligiga ko'ra bir-biridan farqlanishi bilan bog'laydi.

1975-yilda **L.V. Muravyov** lakuna tushunchasiga yanada aniqroq metaforik ta'rif beradi:

“Lakunalar — bu tilning leksik to'ridagi “bo'sh kataklar” bo'lib, ular faqat ikki yoki undan ortiq tillarning leksik tizimlarini o'zaro chog'ishtirgandagina namoyon bo'ladi”.

E'tiborli jihati shundaki, Muravyov "bo'sh kataklar" deb atagan ushbu lisoniy bo'shliqlarni Yakobson **"aylanma yo'llar"** (*circumlocution*) — ya'ni neologizmlar, kalkalash yoki tavsifiy tarjima usullari orqali to'ldirishni taklif etadi. Bu esa badiiy tarjimada asl matndagi milliy-madaniy bo'shliqlarni o'quvchiga yetkazib berishning asosiy strategik vositalaridir.

G'arb tarjimashunosligining taniqli vakillari ham realiya va lakuna muammolarini o'ziga xos tarzda tadqiq etganlar. Xususan, **Piter Nyumark** "madaniy so'zlar" (*cultural words*) tushunchasiga to'xtalib, shunday yozadi:

“Men madaniyatni muayyan tilni o'zaro muloqot vositasi sifatida qo'llaydigan jamiyatga xos bo'lgan hayot tarzi va uning ko'rinishlari sifatida belgilayman. Aksariyat madaniy so'zlarni aniqlash oson, chunki ular ma'lum bir til bilan bog'liq bo'lib, ularni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi”.

Nyumark tomonidan keltirilgan ushbu "madaniy so'zlar" tushunchasi mazmunan bevosita realiyalarga to'g'ri keladi.

Lakuna muammosi va uning yechimlari borasida **Mona Beykerning** qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olima "ekvivalentlikning yo'qligi" (*non-equivalence*) tushunchasi doirasida ushbu muammoga atroflicha to'xtalib o'tadi. **Jon Katford** esa badiiy tarjimadagi qiyinchiliklarni "lisoniy" va "madaniy" to'siqlarga ajratib ko'rsatadi.

S. Vlixov va S. Florin nazdida realiyalar matnni ma'lum bir davr yoki etnik muhit bilan bog'lab, uning **haqiqiyiligini** (*authenticity*) ta'minlaydi. Ya'ni, kitobxon mutolaa davomida o'sha davr muhitini bevosita his qiladi. **P. Nyumarkning** qarashlari ham bu borada hamohang bo'lib, u "madaniy so'zlarni" (*cultural words*) voqea-hodisalar vaqtini va o'sha madaniyatga xos atmosferani yaratuvchi asosiy omillar deb ko'rsatadi. **V.L. Muravyov** lakunalarning vazifasiga

boshqacha yondashib, ularni kitobxonning aqliy faoliyatini oshiruvchi va o'zga bir olamga "tashrif buyurganini" bildirib turuvchi vositalar sifatida baholaydi. **Lourens Venuti** esa ularni himoyalovchi vosita deb biladi; uning fikricha, aynan shu birliklar manba matnning o'zga madaniyat ta'sirida yutilib yoki yo'qolib ketmasligini ta'minlaydi. O'zbek tarjimashunoslik maktabi asoschisi **G'aybulla Salomov** realiyalarni asl manbadagi milliy mentalitet, sharqona odob-axloq va o'ziga xosliklarni ko'rsatib beruvchi vositalar sifatida ko'rgan. Shuningdek, xitoylik olim **Jihe Kang** ham realiyalarni sharqona madaniyatning o'zligini g'arb matnlarida saqlab qolish quroli deb biladi. Agarda **Xans Vermerning** skopos nazariyasi bilan yondashsak, realiyalarning vazifasi tarjima qilinyotgan yangi til madaniyatidagi maqsadga muvofiq belgilanadi. **Noila Qutbiddinova** nazdida ular matnda "uslubiy marker" vazifasini o'tasa, **Milan Kundera** uchun realiyalar nafaqat uslubiy marker, balki asar ruhini tarjimada saqlab qoluvchi asosiy elementdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London and New York: Routledge, 1992. – P. 20–26;
2. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965. – P. 93–103.
3. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // *On Translation*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959. – P. 232–239.
4. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Высшая школа, 1986. – С. 47–52.
5. Муравьев В. Л. Лексические лакуны (на материале французского и русского языков). – Владимир: ВГПИ, 1975. – С. 5–12.
6. Сорокин Ю. А., Марковина И. Ю. Этнопсихоллингвистика. – М.: Наука, 1988. – С. 78–85.